



## O'ZBEK TILIDA DO'PPIDO'ZLIK LEKSIKASINING VUJUDGA KELISH OMILLARI VA SABABLARI

**Mamatova Dilafuz Zafarovna,**

Qo'qon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

[Dilafuzmamatova092@gmail.com](mailto:Dilafuzmamatova092@gmail.com)

Tel+998950617117

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1808>

### MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE

**Qabul qilindi:** 17-avgust 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 19-avgust 2026-yil

**Jurnal soni:** 19-A

**Maqola raqami:** 43

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

soha leksikasi, hunarmandchilik  
terminologiyasi, do'ppido'zlik, so'z  
yasalishi, dialektizm, etnolingvistika,  
o'zlashma so'zlar, milliy o'zlik

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi do'ppido'zlik leksikasining shakllanishi, tarkibiy xususiyatlari va vujudga kelishiga ta'sir etuvchi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar tahlil qilinadi. Do'ppido'zlikka oid leksik birliklar ma'no va kasbiy qo'llanish xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirilib, ularning asbob-uskuna, material va xomashyo, texnika va uslub, tayyor mahsulot hamda hunar jarayonini ifodalovchi qatlamlari aniqlanadi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, dala-dialektologik, leksik-semantik va so'z yasalishi tahlili metodlaridan foydalanilgan. Tahlil uchun lug'atlar, etnografik manbalar, filologik tadqiqotlar hamda hududiy dala materiallari asosida jamlangan leksik birliklar jalb etilgan. Do'ppido'zlik leksikasining shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy-dialektal, tilning ichki taraqqiyoti, tarixiy til aloqalari, madaniy-ma'naviy va marosim bilan bog'liq omillarning o'zaro ta'siri aniqlangan. Shuningdek, ushbu leksik qatlamda yasama so'zlar, so'z birikmali terminlar, semantik ixtisoslashuv va o'zlashma birliklarning ishtiroki ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari do'ppido'zlik leksikasining nafaqat kasbiy nomlash tizimi, balki o'zbek xalqining hunarmandchilik tajribasi, hududiy an'analari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim leksik qatlam ekanini asoslashga xizmat qiladi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 17 August 2026

**Approved:** 19 August 2026

**Volume:** 19-A

**Paper number:** 43

### KEYWORDS

specialized vocabulary, craft terminology,  
do'ppido'zlik, word-formation, dialectism,  
ethnolinguistics, borrowings

### ANNOTATION

This article analyzes the formation, structural characteristics, and linguistic and extralinguistic factors influencing the development of skullcap-making (do'ppido'zlik) vocabulary in the Uzbek language. The lexical units associated with skullcap making are classified according to their semantic and professional usage characteristics, revealing such thematic groups as names of tools and equipment, materials and raw materials, techniques and styles, finished products, and processes involved in craftsmanship. The study employs descriptive, comparative-historical, field-dialectological, lexical-semantic, and word-formation methods. The analysis draws on dictionaries, ethnographic sources, philological studies, and lexical materials collected through fieldwork in different regions. The findings demonstrate that the formation of skullcap-making vocabulary has been influenced by the interaction of socioeconomic, regional-dialectal, internal linguistic development, historical language contacts, cultural-spiritual, and ceremonial factors. The study also identifies the role of derived words, terminological word combinations, semantic specialization, and borrowed lexical units in the development of this professional vocabulary. The findings demonstrate that skullcap-making vocabulary represents not only a system of professional naming but also an important lexical layer reflecting the traditional craftsmanship, regional practices, and cultural memory of the Uzbek people.

### Kirish

O'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyati tarkibida do'ppido'zlik hunari alohida o'rin tutadi. Ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan ushbu hunar xalqning estetik qarashlari, kiyinish madaniyati, amaliy san'ati va ijtimoiy-maishiy an'analari bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Do'ppido'zlikning taraqqiyoti natijasida nafaqat turli shakl, bezak va uslubdagi mahsulotlar, balki ularni tayyorlash jarayonini, ishlatiladigan asbob-uskunalar, materiallar, tikish va bezash usullari hamda tayyor mahsulot turlarini ifodalovchi o'ziga xos leksik birliklar tizimi ham yuzaga kelgan. Har qanday kasb-hunar taraqqiyoti muayyan predmet, jarayon va tushunchalarni nomlash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan kasbiy faoliyatning rivojlanishi tilning leksik tarkibida yangi birliklarning shakllanishi yoki mavjud birliklarning ma'no jihatdan ixtisoslashuviga olib keladi [1, 42–47-b.]. Do'ppido'zlik leksikasining shakllanishi ham ana shu umumiy lingvistik qonuniyat bilan bog'liq.

Kasb-hunar leksikasining tarkib topishida tilning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda muayyan hunarning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, hududiy xususiyatlari va boshqa tillar bilan aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida yangi leksik birliklarning shakllanishida affiksatsiya, kompozitsiya, semantik taraqqiyot kabi ichki so'z yasash imkoniyatlari faol ishtirok etishi qayd etilgan [2, 118–126-b.]. Bunday jarayonlar hunarmandchilik terminologiyasida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki hunarning rivojlanishi davomida yangi asbob, material, texnika yoki ish usulining paydo bo'lishi ularni nomlash zaruratini tug'diradi. Natijada umumxalq tilidagi ayrim birliklar kasbiy ma'noda

ixtisoslashadi, yangi yasama birliklar yuzaga keladi yoki bir necha so'zning birikishi asosida terminologik nomlar shakllanadi.

O'zbek tilshunosligida soha va kasb-hunar leksikasining shakllanishi, uning struktur-semantik xususiyatlari hamda terminologik tizim sifatidagi o'rni bo'yicha muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Hunarmandchilik terminologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda mazkur qatlamning kasbiy faoliyat bilan bog'liqligi, terminlarning mavzuiy guruhlarga ajralishi va ularning muayyan hunar doirasidagi kommunikativ vazifasi yoritilgan [3, 63–70-b.]. Ushbu ilmiy qarashlar do'ppido'zlik leksikasini ham alohida terminologik tizim sifatida o'rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Biroq hunarmandchilikning alohida turi sifatida do'ppido'zlikka oid leksik birliklarning aynan qanday omillar ta'sirida shakllangani, ularning ichki va tashqi manbalari, hududiy variantlari hamda madaniy-semantik xususiyatlarini o'zaro bog'liq holda tadqiq etish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Do'ppido'zlik leksikasini o'rganishda uning moddiy madaniyat bilan aloqadorligini ham hisobga olish zarur. O'rta Osiyo xalqlarining an'anaviy kiyimlari tarixini o'rgangan tadqiqotlarda bosh kiyimlarning shakli, materiali, bezagi va hududiy xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning jamiyatdagi madaniy vazifalari ham yoritilgan [4, 154–171-b.]. Mazkur ma'lumotlar do'ppi nomlari, uning qismlari, bezaklari va tayyorlanish usullariga oid leksik birliklarning shakllanishini tarixiy-etnografik jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini beradi. Binobarin, do'ppido'zlik terminologiyasini faqat texnologik jarayonni ifodalovchi kasbiy birliklar yig'indisi sifatida emas, balki xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini aks ettiruvchi leksik qatlam sifatida baholash lozim.

Til va madaniyat munosabatlari doirasida olib borilgan tadqiqotlar ham hunarmandchilik leksikasining milliy-madaniy mazmunini ochib berishda muhim nazariy asos bo'la oladi. N. Mahmudov til birliklarining xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlarini va milliy dunyoqarashi bilan uzviy aloqadorligini ta'kidlaydi [5, 88–95-b.]. Bu holat do'ppido'zlik leksikasida, ayniqsa, naqsh va bezak nomlari, mahsulot turlari hamda marosim bilan bog'liq birliklarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayrim terminlar bevosita buyum yoki texnologik jarayonni ifodalash bilan cheklanmay, xalqning estetik qarashlari, ramziy tasavvurlari va an'anaviy qadriyatlarini ham o'zida mujassamlashtiradi.

Do'ppido'zlik leksikasining shakllanishida hududiy omilning ham o'ziga xos o'rni mavjud. O'zbekistonning turli hududlarida do'ppi tikish va bezashning mahalliy maktablari shakllanganligi sababli bir xil yoki yaqin tushunchalarni ifodalovchi birliklarning hududiy variantlari yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, hunarmandchilik an'analari avlodlardan avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan sharoitda kasbiy leksikaning muayyan hududga xos birliklari saqlanib qoladi. Shu sababli do'ppido'zlik leksikasini o'rganishda adabiy til materiallari bilan bir qatorda sheva va dialekt materiallariga murojaat qilish ham muhimdir.

#### Adabiyotlar tahlili

O'zbek tilining so'z asosini kasb-hunarga oid leksikasini o'rganish leksikologiya, terminologiya, dialektologiya va etnolingvistika yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelmog'ida. Kasb-hunar leksikasi muayyan ishlab chiqarish yoki hunar turi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi birliklar majmui sifatida tilning ijtimoiy faoliyat bilan aloqasini namoyon etadi. Sh. Rahmatullayevning leksikologiyaga oid qarashlari so'zlarning nominativ vazifasi, ma'no taraqqiyoti va yangi leksik birliklarning yuzaga kelish jarayonlarini tushuntirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Muayyan faoliyat turi rivojlanishi bilan shu faoliyatga oid yangi predmet, jarayon va tushunchalarni nomlash ehtiyoji yuzaga kelishi kasbiy leksikaning shakllanishidagi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi [1, 42–47-b.]. Mazkur nazariy qarash do'ppido'zlik leksikasining ham hunarning amaliy ehtiyojlari asosida shakllanganini izohlash imkonini beradi.

O'zbek tilida so'z yasashni tizimiga bag'ishlangan tadqiqotlar do'ppido'zlik leksikasining ichki lingvistik manbalarini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. A. Nurmonov, B. Yo'ldoshev, A. Sobirov va hammualliflar o'zbek tilida yangi so'zlarning yuzaga kelish mexanizmlarini, so'z yasash modellari va ularning leksik tizimni boyitishdagi o'rni yoritganlar. Tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatilgan affiksatsiya, kompozitsiya va boshqa so'z yasash imkoniyatlari muayyan so'z leksikaning ichki resurslar hisobiga boyish jarayonini tushuntirishga xizmat qiladi [2, 118–126-b.]. Do'ppido'zlikka oid *do'ppido'z*, *tikuvchi*, *naqshkor* singari birliklarning yuzaga kelishi ham o'zbek tilining mavjud so'z yasash imkoniyatlari bilan bog'liq holda izohlanishi mumkin. Shuningdek, *do'ppi tikmoq*, *gul solmoq*, *kashta bosmoq* kabi terminologik birikmalar muayyan kasbiy harakat va jarayonlarning til birliklari orqali nomlanishini ko'rsatadi.

Kasb-hunar leksikasining struktur-semantik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar do'ppido'zlik terminologiyasining shakllanish qonuniyatlarini aniqlash uchun bevosita nazariy asos bo'la oladi. A. Hamidov o'zbek tilidagi kasb-hunar leksikasining yasash va semantikasini tahlil qilgan ekan, kasbiy birliklarning shakllanishida so'z yasash imkoniyatlari bilan bir qatorda ma'no ixtisoslashuvi ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [10, 12–19-b.]. Bu jihat do'ppido'zlik leksikasida umumiste'mol so'zlarining tor kasbiy ma'noda qo'llanishini tushuntirish uchun muhimdir. Masalan, *gul*, *bosmoq*, *chizmoq*, *ilmoq* kabi birliklar umumxalq tilida keng ma'nolarda qo'llansa-da, hunarmandlar nutqida ular do'ppi tayyorlash, naqsh tushirish yoki bezash jarayonlarini ifodalovchi maxsus ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Demak, do'ppido'zlik leksikasining shakllanishida semantik ixtisoslashuv ham faol mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek hunarmandchiligi terminologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mazkur masalani kengroq so'z asosini kontekstda tushunishga imkon beradi. Sh. Sirojiddinov va D. Yusupovning tadqiqotlarida hunarmandchilik terminologiyasining shakllanishi, kasbiy birliklarning tizimlanishi va ularning muayyan hunar jarayonlarini ifodalashdagi xususiyatlari yoritilgan [3, 63–70-b.]. Ushbu ilmiy qarashlar do'ppido'zlik terminlarini alohida birliklar sifatida emas, balki o'zaro semantik va funksional munosabatlarga kirishuvchi yaxlit tizim sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, asbob-uskuna, material, texnika, naqsh, tayyor mahsulot va ish-harakat nomlarining alohida guruhlariga ajratilishi do'ppido'zlik leksikasining ichki strukturaviy tashkil topganligini ko'rsatadi.

Do'ppido'zlik leksikasining shakllanishini tarixiy-madaniy jihatdan tushuntirishda O. Suxarevaning O'rta Osiyo kostyumi tarixiga bag'ishlangan tadqiqoti muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda an'anaviy kiyimlarning shakllanishi, hududiy xususiyatlari va

ularning ijtimoiy-madaniy mazmuni bilan bog'liq masalalar yoritilgan [4, 154–171-b.]. Kiyim-kechak tizimining tarkibiy qismi sifatida do'ppining shakli, materiali, bezagi va hududiy ko'rinishlari uning nomlanish tizimiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli do'ppi nomlari va unga aloqador terminlarni faqat texnologik nuqtayi nazardan emas, balki tarixiy-etnografik kontekstda o'rganish ham muhimdir.

Til va madaniyat munosabatlari o'ldirish do'ppido'zlik leksikasining etnolingvistik xususiyatlarini aniqlashda alohida metodologik ahamiyatga ega. N. Mahmudov til birliklarining xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlarini va madaniy qarashlari bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi [5, 88–95-b.]. Ushbu yondashuv do'ppido'zlik leksikasida uchraydigan naqsh, bezak va mahsulot nomlarining semantik tarkibini izohlash imkonini beradi. Do'ppi o'zbek madaniyatida oddiy kiyim elementi bo'lish bilan bir qatorda milliylik, estetik did va ayrim ijtimoiy-marosimiy munosabatlarni ifodalovchi madaniy belgi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli do'ppido'zlik terminlarining ayrimlari bevosita predmet yoki texnologik jarayonni emas, balki shu predmet bilan bog'liq madaniy tasavvurlarni ham aks ettirishi mumkin [5, 88–95-b.].

Do'ppido'zlik leksikasining hududiy xususiyatlarini o'rganishda dialektologik manbalar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Sh. Shoabdurahmonov va hammualliflar tomonidan tuzilgan *O'zbek xalq shevalari lug'ati* hududiy leksikaning tarkibi va shevalarda saqlanib qolgan birliklarni aniqlash uchun muhim manba hisoblanadi [6, 96, 214, 301-b.]. Hunarmandchilikka oid terminlarning ayrimlari adabiy tilda keng qo'llanmasligi, biroq muayyan hududdagi ustalar nutqida faol saqlanishi mumkin. Shu jihatdan sheva materiallari do'ppido'zlik terminlarining hududiy variantlarini aniqlash, ularning tarqalish doirasini belgilash va adabiy til birliklari bilan qiyoslash imkonini beradi.

X. Doniyorovning Farg'ona guruhi shevalari leksikasiga bag'ishlangan tadqiqoti ham hududiy-dialektal omilni aniqlash uchun muhim manbalardan biridir. Farg'ona hududida tarixan turli hunarmandchilik turlarining rivojlanganligi ushbu hudud leksikasida kasbiy va hunarmandchilik birliklarining saqlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Sheva leksikasini o'rganish orqali ayrim kasbiy birliklarning fonetik variantlari, ma'no xususiyatlari va hududiy qo'llanish doirasini aniqlash mumkin [9, 205–211-b.]. Do'ppido'zlik leksikasiga nisbatan ushbu yondashuv Chust va Farg'ona hududlarida shakllangan do'ppido'zlik maktablari terminlarini qiyosiy o'rganish uchun ham nazariy asos yaratadi.

O'zbek an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy va amaliy jihatlarini o'rganish N. Sodiqovning tadqiqotlari ham do'ppido'zlik terminologiyasining ekstralingvistik asoslarini aniqlashda muhimdir. Hunarmandchilikning tashkil etilishi, ustoz-shogirdlik an'analari, ishlab chiqarish jarayonlari, asbob va materiallardan foydalanish tajribasi kabi omillar kasbiy leksikaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [7, 74–82-b.]. Chunki muayyan hunar jarayoni qanchalik murakkab va bosqichma-bosqich tashkil topgan bo'lsa, uni ifodalovchi maxsus nomlar tizimining ham shunchalik kengayishi tabiiydir. Do'ppido'zlikka oid asbob, material, tikish usuli va jarayon nomlarining mavjudligi aynan shunday kasbiy tajribaning tilda aks etganini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi kasb-hunar leksikasi bir nechta o'zaro bog'liq omillar ta'sirida shakllanadi. Bir tomondan, yangi predmet va jarayonlarni nomlash ehtiyoji tilning ichki so'z yasash imkoniyatlarini faollashtirsa, ikkinchi tomondan, hududiy muhit, kasbiy jamoa, tarixiy til aloqalari va madaniy an'analari leksik tarkibning boyishiga ta'sir ko'rsatadi [1, 42–47-b.; 2, 118–126-b.]. Shu sababli do'ppido'zlik leksikasining vujudga kelish sabablarini faqat lingvistik omillar bilan chegaralash yetarli emas. Uning tarkibida ichki so'z yasashini bilan bir qatorda dialektal, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy va o'zlashma qatlamlarning ham mavjudligi ushbu leksik tizimning ko'p omilli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

#### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini o'zbek tilidagi do'ppido'zlik leksikasining shakllanishi, rivojlanishi va semantik xususiyatlarini kompleks o'rganishga yo'naltirilgan lingvistik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, dala-dialektologik, leksik-semantik hamda so'z yasashni tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida to'plangan leksik birliklar mazmun-mohiyati, qo'llanish xususiyati va funksional vazifasiga ko'ra muayyan tematik guruhlariga ajratilib, har bir guruhning o'ziga xos lingvistik belgilari tavsiflandi. Mazkur yondashuv do'ppido'zlikka oid birliklarning o'zaro semantik munosabatlarini, kasbiy faoliyat jarayonidagi vazifasini hamda terminologik tizimdagi o'rni aniqlash imkonini berdi.

Do'ppido'zlik leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlarini aniqlashda qiyosiy-tarixiy metodga murojaat qilindi. Ushbu metod asosida ayrim terminlarning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi, boshqa tillar bilan aloqasi hamda o'zlashgan qatlamlarga mansubligi tahlil qilindi. Xususan, o'zbek hunarmandchilik leksikasida uchraydigan ayrim birliklarning fors-

tojik va arab tillari bilan aloqador jihatlarini aniqlashda lug'aviy materiallar va sheva ma'lumotlari qiyosiy asosda o'rganildi. Bunday tahlil do'ppido'zlik leksikasining faqat ichki til imkoniyatlari asosida emas, balki uzoq davom etgan madaniy, savdo-iqtisodiy va til aloqalari ta'sirida ham shakllanganini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning muhim manbalaridan biri dala-dialektologik materiallar hisoblanadi. Chust, Farg'ona va Shahrisabz hududlarida faoliyat yurituvchi usta-hunarmandlar bilan olib borilgan suhbatlar asosida do'ppido'zlik jarayonida amalda qo'llanayotgan, ayrim hollarda esa faqat muayyan hudud yoki kasbiy muhit doirasida saqlanib qolgan leksik birliklar qayd etildi. Ushbu materiallar adabiy til va sheva birliklarini qiyoslash, hududiy variantlarni aniqlash hamda do'ppido'zlik terminlarining real nutqiy qo'llanishini kuzatish imkonini berdi. Dala materiallari 2023–2024-yillarda Chust, Farg'ona va Shahrisabz hududlarida ustalar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida to'plangan. Shuningdek, o'zbek shevalarida saqlanib qolgan kasbiy birliklarni aniqlashda sheva lug'atlari materiallariga ham tayanildi.

Do'ppido'zlik leksikasining ichki tuzilishi va shakllanish mexanizmlarini aniqlash maqsadida leksik-semantik hamda so'z yasalishi tahlili metodlaridan foydalanildi. Leksik-semantik tahlil orqali terminlarning ma'no tarkibi, ularning bir-biriga semantik munosabati, ma'no kengayishi yoki torayishi bilan bog'liq jarayonlar o'rganildi. So'z yasalishi tahlili esa do'ppido'zlikka oid birliklarning affiksatsiya, kompozitsiya, semantik ko'chish va o'zlashtirish kabi usullar orqali shakllanish xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Kasb-hunar leksikasining yasalishi va semantik xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham bunday birliklarning tilning umumiy so'z yasash tizimi bilan uzviy aloqadorligi qayd etiladi.

Tadqiqotning manba bazasini bir necha turdagi materiallar tashkil etdi. Jumladan, leksikografik manbalar sifatida izohli va sheva lug'atlaridan, etnografik manbalar sifatida o'zbek an'anaviy hunarmandchiligi va milliy kiyim-kechak madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlardan foydalanildi. O'zbek an'anaviy hunarmandchiligi doirasidagi terminlarning predmet, jarayon va kasbiy faoliyat bilan bog'liq jihatlarini aniqlashda etnografik materiallar muhim manba vazifasini bajardi. Filologik manbalar, xususan, kasb-hunar leksikasining yasalishi va semantikasiga bag'ishlangan

tadqiqotlar esa do'ppido'zlik terminlarini umumiy kasbiy leksika tizimi doirasida talqin qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil uchun tanlangan materiallar hajmini belgilashda dastlabki dala kuzatuvlari, lug'at materiallari va ilmiy manbalardan aniqlangan birliklar birgalikda hisobga olindi. Tadqiqot davomida jami 180 dan ortiq leksik birlik to'plandi. Ularning qo'llanish faolligi, mavzuga bevosita aloqadorligi, semantik aniqligi va do'ppido'zlik kasbiy faoliyatini ifodalash darajasidan kelib chiqib, 96 ta leksik birlik asosiy tahlil materiali sifatida tanlab olindi. Mazkur birliklar keyingi bosqichda tematik, leksik-semantik, hududiy va strukturaviy xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirilib, do'ppido'zlik leksikasining shakllanish omillari va ichki tizimiy xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan holda tahlil qilindi.

#### Natijalar

Do'ppido'zlikka oid leksik birliklar o'z ma'no xususiyati va hunarmandchilik jarayonidagi vazifasiga ko'ra bir xil emas. Ularning ayrimlari do'ppi tayyorlashda ishlatiladigan asbob va buyumlarni, boshqalari xomashyo hamda materiallarni, yana bir qismi naqsh tushirish, bezak berish va tikish usullarini ifodalaydi. Shuningdek, tayyor mahsulotning turi, uning mahalliy ko'rinishi yoki tayyorlanish usuli bilan bog'liq nomlar ham alohida lug'aviy qatlamni tashkil etadi. Shu jihatdan do'ppido'zlik leksikasini faqat predmet nomlari bilan cheklab bo'lmaydi; unda hunarning bajarilish jarayonini ifodalovchi harakat nomlari va kasbiy fe'llar ham muhim o'rin tutadi.

To'plangan materiallarni semantik jihatdan guruhlashtirishda birliklarning bevosita nimani anglatishi, do'ppido'zlik faoliyatining qaysi bosqichida qo'llanishi hamda kasbiy jarayondagi funksiyasi asosiy mezon sifatida olindi. Bunday yondashuv leksik birliklarning o'zaro ma'no munosabatlarini aniqroq ko'rsatish bilan birga, do'ppi tayyorlash jarayonining til birliklarida qanday aks etganini ham kuzatish imkonini beradi. Tahlil natijasida do'ppido'zlik leksikasi asbob-uskuna nomlari, material va xomashyo nomlari, texnika va uslub nomlari, tayyor mahsulot turlari hamda jarayon fe'llari kabi besh asosiy tematik guruhga ajratildi. Har bir guruh tarkibidagi birliklar o'zining predmet-semantik xususiyati va kasbiy qo'llanish doirasi bilan farqlanadi.

Quyidagi jadvalda mazkur tematik guruhlarning tarkibi, ularga xos leksik birliklar va ularning do'ppido'zlikdagi vazifasi umimlashtirilgan.

1-jadval

Do'ppido'zlik leksikasining tematik tasnifi

| Tematik guruh                | Misollar                                                          | Qisqacha izoh                                                       |
|------------------------------|-------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Asbob-uskuna nomlari         | igna, bigiz, angishvona, qarmoq, ilmoq, chambar, qolip            | Do'ppi tikish jarayonida qo'llaniladigan buyumlar nomi              |
| Material va xomashyo nomlari | survon, duxoba, atlas, shohi, zar ip, jun ip, astar               | Do'ppi tayyorlashda ishlatiladigan mato va ip turlari               |
| Texnika va uslub nomlari     | bosma, iroqi, zarduzi, chizma, gulduzi, sanama                    | Naqsh tushirish va tikish usullarini bildiruvchi terminlar          |
| Tayyor mahsulot turlari      | chust do'ppi, gilam do'ppi, romon do'ppi, quroq do'ppi, kalapo'sh | Hududiy va uslubiy xususiyatlarga ko'ra farqlanuvchi do'ppi nomlari |
| Jarayon fe'llari             | do'zmoq, bosmoq, chizmoq, kashta bosmoq, gul solmoq               | Hunar jarayonining harakatini ifodalovchi fe'llar                   |


Ko'rinib turibdiki, tayyor mahsulot turlari nomlanishida hududiy omil yetakchi rol o'ynaydi: *chust do'ppi, farg'ona do'ppi, shahrisabz do'ppi* kabi nomlar toponimik asosga ega bo'lib, ma'lum hunarmandchilik maktabining o'ziga xosligini ifodalaydi.

Do'ppido'zlikka oid lug'aviy birliklarning shakllanishi faqat muayyan buyum yoki jarayonni nomlash ehtiyoji bilan izohlanmaydi. Hunarning rivojlanishi, uning turli hududlarda o'ziga xos shakllarda davom etishi, kasbiy tajribaning avloddan avlodga o'tishi va boshqa madaniyatlar bilan aloqalarning kuchayishi natijasida ushbu soha leksikasi ham asta-sekin kengayib va takomillashib borgan. Shu sababli do'ppido'zlik terminlarini o'rganishda ularning qanday nomlanganini aniqlash bilan bir qatorda, bunday nomlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan tashqi va ichki omillarni ham hisobga olish zarur.

Mazkur jarayonda tilning ichki imkoniyatlari bilan hunarmandchilikning ijtimoiy-madaniy muhiti o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim birliklar mavjud so'z yasash modellari

asosida hosil bo'lgan bo'lsa, boshqa terminlarning shakllanishida hududiy kasbiy muhit, ustoz-shogird an'anasi, savdo munosabatlari yoki boshqa tillar bilan tarixiy aloqalar muhim ahamiyat kasb etgan. Do'ppi bilan bog'liq qarashlarning milliy urf-odatlar, marosimlar va diniy-ma'naviy tasavvurlar bilan aloqadorligi ham ayrim leksik birliklarning ma'no doirasiga ta'sir ko'rsatgan.

Shu nuqtayi nazardan, do'ppido'zlik leksikasining vujudga kelish omillarini bir-biridan mutlaqo ajratilgan hodisalar sifatida emas, balki o'zaro ta'sirlashuvchi lingvistik va ekstralingvistik jarayonlar majmui sifatida qarash mumkin. To'plangan materiallar tahlili ushbu leksik qatlamning shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy-dialektal, tilning ichki taraqqiyoti, tashqi til ta'siri, madaniy-ma'naviy va diniy, shuningdek, urf-odat va marosim bilan bog'liq omillar muntazam kuzatilishini ko'rsatdi. Mazkur omillarning har biri do'ppido'zlik leksikasida muayyan til hodisalari orqali namoyon bo'ladi.



1-rasm. Do'ppido'zlik leksikasi vujudga kelishining asosiy omillari

1-rasmda do'ppido'zlik leksikasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar umumlashtirilgan bo'lsa, 2-jadvalda ularning mazmuni va konkret lisoniy ifodalanish shakllari tizimlashtiriladi.

2-jadval

Omllarning mazmuni va lisoniy ifodasi

| Omil turi                      | Mazmuni                                                                                      | Til faktida namoyon bo'lishi                                                       |
|--------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
| Ijtimoiy-iqtisodiy omil        | Hunarmandchilik korporatsiyalari (kasta), ustoz-shogirdlik tizimi, bozor-savdo munosabatlari | hunar risolalari tili, kasbiy atamalarning turg'unlashuvi                          |
| Hududiy-dialektal omil         | Turli hududlarda mustaqil ustaxona-maktablarning shakllanishi                                | chust, farg'ona, buxoro, shahrisabz, samarqand do'ppido'zlik maktablari terminlari |
| Til ichki taraqqiyoti          | So'z yasallishining ichki qonuniyatlari                                                      | affiksatsiya (-chi, -lik, -don), kompozitsiya, semantik ko'chish                   |
| Tashqi til ta'siri             | Tarixiy til aloqalari                                                                        | fors-tojik (duxoba, zardo'zi), arab (naqsh, husn), rus-baynalmilal qatlam          |
| Madaniy-ma'naviy va diniy omil | Bosh kiyimning milliy-diniy ramz sifatidagi maqomi                                           | diniy-etik konnotatsiyaga ega leksik birliklar                                     |
| Urf-odat va marosim omili      | To'y-marosimlarda sovg'a va tuhfa an'analari                                                 | marosim leksikasi bilan kesishuvchi terminlar                                      |

Do'ppido'zlik leksikasining shakllanishida hunarmandchilikning tarixiy taraqqiyoti, kasbiy tajribaning avloddan avlodga uzatilishi va ushbu faoliyatning ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Do'ppido'zlik hunari uzoq vaqt davomida ustoz-shogirdlik an'anasi asosida rivojlanganligi sababli, kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga kelgan atamalar ham asosan og'zaki muloqot orqali shakllanib, keyingi avlod vakillariga o'tib kelgan. Har bir ustaxona yoki hunarmandchilik muhiti o'ziga xos kasbiy nomlash tizimiga ega bo'lishi mumkinligi terminlarning turg'unlashuvi va muayyan hudud doirasida faol qo'llanishiga zamin yaratgan. Hunarmandchilik mahsulotlarining bozor munosabatlariga kirib borishi esa mahsulotning turi, sifati, bezagi va tayyorlanish xususiyatlarini ifodalovchi birliklarning kengayishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa do'ppido'zlik leksikasi hunarning amaliy ehtiyojlari bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-iqtisodiy muhiti ta'sirida ham boyib borgan.

Do'ppido'zlik leksikasining hududiy xususiyatlari ham uning shakllanish jarayonini belgilovchi muhim omillardan biridir. O'zbekistonning Chust, Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz kabi hududlarida shakllangan do'ppido'zlik maktablari o'zining texnikasi, bezak usullari va kasbiy tajribasi bilan bir-biridan muayyan darajada farqlanadi. Bunday hududiy tafovutlar tegishli lug'aviy birliklarda ham o'z aksini topib, bir xil tushuncha yoki predmetning turli joylarda turlicha nomlanishiga olib keladi. Natijada do'ppido'zlik leksikasi tarkibida adabiy til birliklari bilan bir qatorda shevaga xos yoki hududiy qo'llanish doirasiga ega terminlar ham shakllanadi. Bu holat kasbiy leksikaning hududiy rang-barangligini ko'rsatish bilan birga, mahalliy hunarmandchilik maktablarining tilga ta'sirini ham namoyon etadi.

Mazkur leksik qatlamning rivojlanishida o'zbek tilining ichki so'z yasash imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Do'ppido'zlikka oid ayrim birliklar mavjud so'z yasash modellari asosida hosil qilingan bo'lib, bunda affiksatsiya, kompozitsiya va semantik ko'chish kabi usullar faol kuzatiladi. Masalan, kasb yoki faoliyat bilan bog'liq tushunchalarni ifodalashda *-chi*, *-lik*, *-kor* singari affikslarning imkoniyatlaridan foydalaniladi. *Do'ppido'z*, *tikuvchi*, *naqshkor* kabi birliklar kasbiy faoliyat yoki shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsni nomlash ehtiyojining til vositalari orqali ifodalanishiga misol bo'la oladi. Qo'shma va birikmali nomlar ham do'ppido'zlik terminologiyasida muhim o'rin egallab, predmet yoki jarayonning bir necha belgilarini birgalikda ifodalash imkonini beradi. Bundan tashqari, umumiste'mol tilidagi ayrim so'zlarning tor kasbiy ma'noga ixtisoslashuvi natijasida semantik ko'chish hodisasi yuzaga keladi. Jumladan, *gul* leksemasining do'ppi bezagi tarkibidagi naqsh elementi ma'nosida qo'llanishi umumxalq leksikasidagi birlikning kasbiy semantikaga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Do'ppido'zlik leksikasining shakllanishi faqat tilning ichki imkoniyatlari bilan chegaralanmaydi. Markaziy Osiyoda qadimdan davom etib kelgan savdo, madaniy va hunarmandchilik aloqalari natijasida o'zbek kasbiy leksikasining ayrim qatlamlariga boshqa tillardan birliklar ham kirib kelgan. Do'ppido'zlikka oid *duxoba*, *zardo'zi*, *iroqi*, *naqsh* kabi birliklarning qo'llanishi ushbu soha leksikasining tarixiy til aloqalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bunday o'zlashmalar, ayniqsa, mato, bezak, naqsh va tikish texnikasi bilan bog'liq tushunchalarni nomlashda kuzatiladi. Keyingi tarixiy davrlarda rus tili bilan yuzaga kelgan aloqalar natijasida ishlab chiqarish va texnik faoliyatga oid ayrim birliklar ham kasbiy nutqqa

kirib kelgan. Biroq an'anaviy qo'lda do'ppi tikish bilan bog'liq asosiy terminologik qatlamda milliy tilning ichki imkoniyatlari va tarixiy kasbiy nomlash an'analari ustunligini saqlab qolgan.


Do'ppi milliy kiyim tarkibida muayyan madaniy va ma'naviy mazmunga ega bo'lganligi sababli, do'ppido'zlik leksikasining ayrim birliklarida amaliy-texnik ma'no bilan bir qatorda ramziy va konnotativ mazmun ham kuzatiladi. Do'ppi naqshlarida qo'llanadigan ayrim bezak elementlarining nomlari xalqning estetik qarashlari, ramziy tasavvurlari va an'anaviy madaniy tajribasi bilan bog'langan holda shakllangan. Shu jihatdan do'ppido'zlik leksikasini faqat kasbiy terminlar yig'indisi sifatida emas, balki milliy madaniyatning ayrim belgilarini o'zida saqlab kelayotgan leksik qatlam sifatida ham baholash mumkin. Bunda muayyan naqsh yoki bezak nomining predmetni atash vazifasidan tashqari, unga xos ramziy mazmunni ifodalashi leksik birlikning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Do'ppido'zlik leksikasining rivojlanishida urf-odat va marosimlar bilan bog'liq ehtiyojlar ham muayyan iz qoldirgan. Do'ppining turli marosimlarda kiyilishi, yaqinlarga sovg'a yoki tuhfa sifatida taqdim

etilishi uning nomlanish doirasining kengayishiga sabab bo'lgan. Ayrim do'ppi turlarining kimga, qaysi vaziyatda yoki qanday marosim munosabati bilan mo'ljallanganini ko'rsatuvchi nomlar shu ijtimoiy-madaniy ehtiyoj bilan bog'liq holda shakllangan. Shu sababli do'ppido'zlik leksikasida hunarmandchilik terminlari bilan marosim va urf-odatlariga oid leksika o'rtasidagi semantik aloqadorlikni ham kuzatish mumkin.

Yig'ilgan 96 ta tayanch leksik birlikning lisoniy shakllanish xususiyatlarini tahlil qilish ularning yuzaga kelishida bir nechta so'z yasash va nomlash mexanizmlari ishtirok etishini ko'rsatdi. Mazkur birliklar orasida yasama so'zlar, so'z birikmasi shaklidagi terminlar, o'zlashma birliklar hamda semantik ko'chish asosida kasbiy ma'no kasb etgan so'zlar mavjud. Ularning miqdoriy nisbati 2-rasmda aks ettirilgan. Ushbu taqsimot do'ppido'zlik terminologiyasining shakllanishida tilning ichki so'z yasash imkoniyatlari bilan bir qatorda tayyor nomlash birliklaridan foydalanish va boshqa tillardan o'zlashtirish jarayonlari ham mavjudligini ko'rsatadi

**Do'ppido'zlik leksikasining lisoniy shakllanish usullari bo'yicha taqsimoti (shartli tahliliy ko'rsatkich, %)**



**2-rasm. Do'ppido'zlik leksikasining lisoniy shakllanish usullari bo'yicha taqsimoti**

Diagrammada yasama so'zlarning 27 foizni, so'z birikmalari terminlarning 21 foizni tashkil etishi do'ppido'zlik leksikasida yangi nomlarni mavjud til birliklari asosida hosil qilish va predmet yoki jarayonning bir necha belgisini birikma orqali ifodalash imkoniyatlari faol ekanini ko'rsatadi. O'zlashma birliklarning 12 foizni tashkil etishi esa tarixiy til aloqalarining ushbu kasbiy leksika tarkibidagi o'rni ko'rsatadi. Biroq mazkur foiz ko'rsatkichlari do'ppido'zlik leksikasining milliy xususiyatini yakka holda belgilovchi mezon sifatida emas, balki uning shakllanish mexanizmlaridan birini tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkich sifatida talqin qilinishi lozim. Umuman, lisoniy material tahlili do'ppido'zlik leksikasining shakllanishida ichki so'z yasash, so'z birikmasi asosida termin hosil qilish, semantik ixtisoslashuv va o'zlashma birliklarni qabul qilish jarayonlari o'zaro aloqador holda kechganini ko'rsatadi.

#### **Muhokama**

Do'ppido'zlik leksikasining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash uchun uni o'zbek tilidagi boshqa an'anaviy hunarmandchilik sohalariga xos leksik qatlamlar bilan qiyoslash muhimdir. Kulolchilik, zargarlik va to'qimachilikka oid kasbiy birliklar bilan qiyosiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur sohalar leksikasida hunarning hududiy rivojlanishi, kasbiy tajribaning avlodlar orasida uzatilishi va mahalliy nomlash an'analarning saqlanishi kabi umumiy jihatlar mavjud. Bunday mushtaraklik o'zbek hunarmandchilik leksikasining alohida-alohida, bir-biridan uzilgan tizimlar emas, balki tarixiy va madaniy aloqalar orqali o'zaro yaqinlashgan sohaviy qatlamlardan tarkib topganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, har bir hunar turi o'zining ishlab chiqarish jarayoni, mahsuloti va ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib, maxsus nomlash tizimini shakllantiradi.

Do'ppido'zlik leksikasini boshqa hunarmandchilik sohalaridan ajratib turuvchi jihatlardan biri terminlarning predmetni nomlash bilan bir qatorda uning estetik va madaniy mazmunini ham ifodalash imkoniyatidir. Do'ppi

shakli, bezagi, naqshi va tikilish usuliga oid ayrim nomlar faqat texnik jarayonni anglatib qolmay, muayyan hududning badiiy an'anasi va milliy kiyinish madaniyati bilan ham bog'lanadi. Shu sababli mazkur leksik birliklarning semantik doirasi hunarmandchilik jarayonidan tashqariga chiqib, xalqning estetik qarashlari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi unsurlarga aylanadi. Bu holat do'ppido'zlik terminlarini o'rganishda ularning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda kontekstual va madaniy mazmunini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil jarayonida e'tibor qaratilgan yana bir masala do'ppido'zlikka oid ayrim an'anaviy birliklarning qo'llanish doirasi torayib borayotganidir. Hunarning texnologik jarayonlari o'zgarishi, ayrim an'anaviy usullarning kamroq qo'llanilishi va kasbiy tajribaning kundalik nutqda avvalgidek faol ishlatilmasligi natijasida ayrim terminlar passiv lug'at qatlamiga o'tish xavfi bilan yuzlashmoqda. Ayniqsa, muayyan tikish yoki bezak usullarini ifodalovchi tor kasbiy birliklarning yoshi katta hunarmandlar nutqida saqlanib, yosh avlod nutqida kamroq uchrashi bu jarayonning muhim belgilaridan biridir. Bunday birliklarning yo'qolishi faqat lug'at tarkibining qisqarishi emas, balki ular bilan birga muayyan kasbiy tajriba va hunarmandchilikka oid tarixiy ma'lumotlarning ham unutilishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, do'ppido'zlik leksikasini qayd etish va tizimlashtirish masalasi faqat nazariy tilshunoslik doirasidagi vazifa bo'lib qolmaydi. Amaliy jihatdan ushbu qatlamga oid birliklarni hududiy variantlari, ma'nosi, qo'llanish sohasi va etnomadaniy izohlari bilan birgalikda qayd etish muhimdir. Ayniqsa, dala materiallarini lug'at manbalari bilan birlashtirish orqali hozir faol qo'llanayotgan terminlar bilan tarixiy yoki passiv qatlamga mansub birliklarni farqlash mumkin. Kelgusida do'ppido'zlik terminologik lug'atini yaratish ana shu materiallarni saqlash, ilmiy muomalaga kiritish va keyingi tadqiqotlar uchun izchil manba bazasini shakllantirish imkonini beradi.

## Xulosa

Do'ppido'zlik leksikasi o'zbek tilining kasb-hunar leksikasi tarkibidagi tarixiy, hududiy va madaniy jihatdan muhim qatlamlardan biridir. Uning shakllanishi hunarmandchilikning amaliy ehtiyojlari bilangina chegaralanmay, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, hududiy hunarmandchilik maktablari, kasbiy tajribaning avlodlar davomida uzatilishi, tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari hamda tarixiy madaniy aloqalar bilan uzviy bog'liq holda kechgan. Shu jihatdan do'ppido'zlikka oid birliklar muayyan predmet va jarayonlarni nomlash vositasi bo'lish bilan birga, xalqning hunarmandchilik tajribasi va milliy madaniyatiga oid ma'lumotlarni ham o'zida saqlaydi.

Tahlil qilingan leksik material do'ppido'zlik terminologiyasining ichki jihatdan tizimli xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Unda asbob-uskuna, material va xomashyo, texnika va uslub, tayyor mahsulot hamda hunar jarayonini ifodalovchi birliklar o'zaro semantik munosabatda shakllangan. Bunday tasnif do'ppido'zlik faoliyatining til birliklarida aks etgan yaxlit manzarasini ko'rsatish imkonini beradi. Ayniqsa, mahsulot nomlarida hududiylikning, texnika va uslub nomlarida kasbiy tajribaning, jarayon fe'llarida esa hunarning amaliy xarakterining ustuvorligi kuzatiladi.

Do'ppido'zlik leksikasining yuzaga kelishida lingvistik va ekstralingvistik omillar bir-birini to'ldirib boradi. Hududiy hunarmandchilik maktablarining shakllanishi leksik variantlarning paydo

bo'lishiga, kasbiy faoliyatning rivojlanishi yangi nomlash ehtiyojlarining yuzaga kelishiga, tilning ichki imkoniyatlari esa mavjud birliklar asosida yangi terminlarning hosil bo'lishiga zamin yaratgan. Tarixiy til aloqalari natijasida kirib kelgan o'zlashmalar esa ushbu leksik qatlamning shakllanish jarayoni turli madaniy munosabatlar bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, do'ppining milliy kiyim va madaniy ramz sifatidagi mavqei ayrim birliklarning oddiy predmetlik ma'nosidan tashqari estetik, ramziy va etnomadaniy mazmun kasb etishiga sabab bo'lgan.

O'rganilgan material do'ppido'zlik leksikasining bugungi holatini baholashda uning saqlanishi va uzatilishi masalasiga ham alohida e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi. Ayrim tor kasbiy birliklarning faol qo'llanish doirasi qisqarib borayotgani ushbu leksik qatlamni qayd etish, hududiy variantlarini hujjatlashtirish va izohli tarzda tizimlashtirishni muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylantiradi. Shu ma'noda, do'ppido'zlik terminologiyasini maxsus lug'at shaklida jamlash nafaqat tilshunoslik uchun, balki an'anaviy hunarmandchilikning tarixiy va madaniy tajribasini saqlash uchun ham ahamiyatlidir. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur leksikaning boshqa turkiy tillardagi hunarmandchilik terminlari bilan qiyosiy o'rganilishi uning tarixiy-etimologik va areal xususiyatlarini yanada kengroq yoritish imkonini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий тил лексикаси. – Тошкент: Университет, 2006. – 168 б.
2. Нурмонов А., Йўлдошев Б., Собиров А. ва б. Ўзбек тилининг сўз ясаши тизими. – Тошкент: Фан, 2010. – 240 б.
3. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д. Ўзбек хунармандчилиги терминологияси масалалари. – Тошкент, 2015. – 112 б.
4. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма. – Москва: Наука, 1982. – 288 с.
5. Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 176 б.
6. Ўзбек халқ шевалари лугати / Тузувчилар: Ш.Шоабдурахмонов ва б. – Тошкент: Фан, 1971. – 411 б.

7. Содиқова Н. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги. – Тошкент: Мехнат, 1990. – 224 б.
8. Ҳамидов А. Ўзбек тилида касб-хунар лексикаси (ясаши ва семантикаси): Филол. фан. номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.
9. Дониёров Х. Фарғона гуруҳи шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 256 б.
10. Муаллифнинг дала-тадқиқот ёзувлари: Чуст, Фарғона, Шаҳрисабз усталари билан 2023–2024 йй. ўтказилган суҳбатлар материаллари (қўлёзма архив).